O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

ILM-FANNI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

1. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) hamda Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari 1 va 1a-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, Konsepsiya hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

a) ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida:

ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan milliy reyting tizimini joriy etish;

ilm-fanda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish;

b) ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida:

2025-yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030-yilgacha esa 10 baravarga oshirish;

2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish;

innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2021-yilda 2 ta, 2025-yilda 10 ta venchur jamg‘armalarini tashkil qilish;

v) yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish borasida:

ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o‘rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45 ga, 2030-yilgacha esa 39 ga yetkazish;

2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish;

g) ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida:

2025-yilga qadar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o‘z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 3,5 baravarga, 2030-yilgacha esa 9 baravarga oshirish;

2021-yilda “Yashnobod” innovatsion texnoparkining rezidentlari sonini 60 taga yetkazish va shu asosda innovatsion mahsulotlar turi va hajmini oshirish, shuningdek 720 dan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish;

7 ta zamonaviy laboratoriya majmualarini tashkil etish, ularni GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlash;

d) ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida:

milliy ilmiy portalni yaratish;

olimlar, tashkilotlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

ilmiy tashkilotlar rahbarlari lavozimiga ustuvor ravishda ilm-fan tizimini boshqarish ko‘nikmasiga va iqtisodiy bilimga ega bo‘lgan yosh mutaxassislar tayinlanadi;

2021-yil 1-yanvardan boshlab ilmiy tashkilotlar rahbarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o‘qitish va muntazam malakasini oshirib borish tizimi joriy qilinadi;

2021-yil 1-yanvardan boshlab har bir ilmiy tashkilotda uning boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni doirasida ilm-fan va ilmiy faoliyat bo‘yicha maslahatchi lavozimi kiritiladi, bu lavozimga taniqli ilm-fan namoyandalari va nufuzli olimlardan biri tayinlanadi hamda maslahatchi tashkilotning Ilmiy kengashini boshqaradi;

ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash hamda ilmiy maktablar, fan namoyandalari va yetakchi olimlarning sohadagi mas’uliyatini oshirish maqsadida har bir fan yo‘nalishlari bo‘yicha fan jamiyatlari tashkil qilinadi;

2021-yilda xalqaro mustaqil ekspert kompaniyalarini jalb etgan holda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan barcha davlat ilmiy tashkilotlarining ilmiy-innovatsion faoliyati auditdan o‘tkaziladi;

barcha davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining respublika darajasidagi rahbarlari (birinchi o‘rinbosarlari) bir vaqtning o‘zida ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga mas’ul hisoblanadi hamda bu borada tizimdagi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

4. Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab “Akademik harakatchanlik” dasturi joriy qilinsin.

Belgilab qo‘yilsinki, “Akademik harakatchanlik” dasturi doirasida:

ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarning ilmiy g‘oyalarini rag‘batlantirish, ularning xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarga qisqa muddatli stajirovkalarini tashkil etish uchun Yoshlar akademiyasining iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan grantlar ajratiladi;

mazkur yoshlarga ilmiy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari, shuningdek vazirlik, idora va tashkilotlar huzuridagi ilmiy tuzilmalardagi zamonaviy ilmiy asbob-uskunalardan bepul foydalanish huquqi beriladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2020-yil 1-dekabrga qadar “Akademik harakatchanlik” dasturini amalga oshirish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. Quyidagilar:

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020 — 2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda — “Yo‘l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq;

Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 — 2023-yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlari (keyingi o‘rinlarda — Maqsadli parametrlar) 3-ilovaga muvofiq;

Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 — 2023-yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlariga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda — Chora-tadbirlar rejasi) 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2021-yil 1-yanvardan boshlab Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi joriy qilinsin.

Belgilansinki, Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali quyidagi ishlar to‘liq amalga oshiriladi:

stajor-tadqiqotchi, izlanuvchi, ilmiy rahbar va konsultantlarga doir ma’lumotlar bankini shakllantirish, stajor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasidagi ishlar bajarilishini qayd etish;

ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash institutlarining samaradorligi monitoringini olib borish, tegishli hisobotlar va tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish;

stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktoranturada o‘qish uchun qabul kvotalari bo‘yicha buyurtmanoma shakllantirish;

ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash institutlarida o‘qish uchun talabgorlarni ro‘yxatga olish.

Innovatsion rivojlanish vazirligi mazkur elektron tizimning uzluksiz ishlashi, unga texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek uning funksional imkoniyatlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirib borsin.

7. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

oliy ta’limdan keyingi ta’limning bir pog‘onali tizimi joriy qilingan xorijiy davlatlarning ro‘yxati har yili Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadigan xalqaro reytinglarda birinchi 300 ta o‘rindan birini egallagan oliy ta’lim tashkilotlarida olingan falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasi to‘g‘risidagi hujjatlari O‘zbekiston Respublikasida fan doktori (DSc) sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri tan olinadi va nostrifikatsiya qilinadi (ekvivalentligi qayd etiladi);

xalqaro reytinglarda birinchi 300 ta o‘rindan birini egallagan oliy ta’lim tashkilotlarida olingan professor, dotsent, katta ilmiy xodim va ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy unvonlar to‘g‘risidagi hujjatlar oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar kengashlarining tavsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazmasdan va boshqa sinovlarsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri tan olinadi.

8. Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlanishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin:

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishning yangi tartibini joriy qilish;

Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg‘armasi va Yoshlar akademiyasining iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish;

Innovatsion rivojlanish vazirligining amaldagi vazifa va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish.

9. Jahon banki tomonidan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida respublikamizda innovatsion tizimni rivojlantirish, innovatsion faoliyat sohasidagi indikatorlarni yaxshilashga ko‘maklashish maqsadida 50 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kredit mablag‘larini ajratish to‘g‘risidagi “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi 2021-yil 1-yanvarga qadar:

Loyiha doirasidagi tashabbuslarni (loyihalarni) baholash va ekspertizadan o‘tkazish uchun Xalqaro ekspert kengashini (International Expert Board) tashkil etish;

Jahon banki talablariga asosan Loyiha doirasidagi tashabbuslarni (loyihalarni) amalga oshirishga ko‘maklashish, moliyaviy nazorat va hisobot tizimini yuritish maqsadida loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

2021-yilda “O‘zbekiston ilmiy salohiyatini oshirish” loyihasini amalga oshirish uchun Jahon bankining qo‘shimcha 50 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kredit mablag‘larini jalb etish bo‘yicha taklif kiritsin.

10. Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mas’ul vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar Maqsadli parametrlarni

amalga oshirish doirasidagi tegishli sarf-xarajatlar uchun Davlat budjeti, tegishli mahalliy budjetlar parametrlari va budjetdan tashqari jamg‘armalar doirasida mablag‘lar ajratsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son qarori bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko‘rsatkichlariga 2021-yil 1-yanvardan boshlab tegishli hududda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar soni, bir million aholi soniga to‘g‘ri keladigan ilmiy tadqiqotchilar va olimlar soni, tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar soni va hajmi indikatorlari kiritilsin.

12. Innovatsion rivojlanish vazirligi 2020-yil 1-dekabrga qadar 2019-yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida yakunlangan ilmiy loyihalar natijadorligini puxta va har tomonlama tahlil qilish asosida yaratilgan muhim ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni bir necha bor ko‘paytirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish dasturini qabul qilsin.

13. Mas’ul ijrochilar — tizimida ilmiy tashkilotlar mavjud bo‘lgan davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari:

bir oy muddatda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishilgan holda “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar va tadbirlarni amalga oshirishning 2020-2021-yillar uchun hamda har yil yakunida — kelgusi yil uchun chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini;

har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar chora-tadbirlar rejalari va “Yo‘l xaritasi”ning ijrosi bo‘yicha ma’lumotlarning tegishli ravishda Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etilishini ta’minlasin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar mazkur Farmonning ijrosi bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlanishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlasin.

14. Quyidagilar:

Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi (A.N. Aripov) zimmasiga — ushbu Farmonning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishini ta’minlash, Konsepsiya hamda “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirish va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish yuzasidan mas’ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilish hamda muvofiqlashtirish, mas’ul rahbarlarning bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarini kengash majlislarida bir yilda kamida ikki marotaba eshitish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

innovatsion rivojlanish vaziri (I.Y. Abduraxmonov) zimmasiga — Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash, ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida ilmiy mahsulotlar hajmi va innovatsion mahsulotlar turlarini kengaytirish faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirib borish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, mas’ul vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga — Konsepsiya va “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarish, ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni shakllantirish asosida tegishli hududdagi mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta’minlashga qaratilgan ilmiy loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash;

Fanlar akademiyasi prezidenti (B.S. Yuldashev) zimmasiga — Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ehtiyojlariga to‘liq moslashtirish, yuqori samarador ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarning soni va joriy etish ko‘lamini kengaytirish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

15. Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi ikki hafta muddatda mazkur Farmonning maqsad va vazifalarini ilmiy jamoatchilik va aholi orasida keng yoritish bo‘yicha 2020-yil yakuniga qadar chiqishlar va tematik teleko‘rsatuvlar tashkil etish maqsadida tegishli davlat organlari va muassasalarining O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga biriktirilishini ta’minlasin.

16. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 29-oktabr,
PF-6097-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga
1-ILOVA

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) strategik maqsadi etib milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o‘tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to‘g‘ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan yo‘nalishlarga investitsiyalarni yo‘naltirish, aholi turmush darajasini bir necha bor yaxshilash, ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalarning innovatsion yondashuvga hamda ilmiy tadqiqotlar va erishilgan natijalarga asoslangan ilmiy yechimini topish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosini ta’minlash hisoblanadi.

Konsepsiya ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini belgilab beradi hamda sohaga oid maqsadli dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

2-bob. Ilm-fanni rivojlantirish zarurati, uning joriy holati va mavjud muammolar

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni dunyo tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o‘sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida tobora raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o‘rin olish, to‘rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to‘plangan institutsional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

Ushbu raqobat sharoitida iqtisodiyotda ustuvor yo‘nalishlar rivojini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi ekotizimni shakllantirish eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Shu sababdan, rivojlanayotgan mamlakatlar raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni va global marketingni faol o‘zlashtirish, ustuvor yo‘nalishlarda o‘z ilmiy maktablarini tashkil etish, tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning moliyaviy va institutsional asoslarini yaratish uchun davlat imtiyozlaridan maqsadli foydalanish kabi choralarni ko‘rmoqda.

Mamlakatimizning ilm-fan sektori 100 dan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalaridan iborat bo‘lib, hozirgi kunda 65 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 31 ta ilmiy markaz (shundan 14 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz) va 8 ta boshqa turdagi ilmiy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini

rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo‘lib, o‘z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda ilm-fan sohasini ustuvor rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 20 dan ziyod normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, ular uzluksizlik, ochiqlik, shaffoflik va raqobat tamoyillariga asoslangan.

2017-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega bo‘lib, yangi idora ilmiy va innovatsion faoliyatga oid jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirmoqda.

Fanlar akademiyasining barcha ilmiy tashkilotlarini Davlat budjeti hisobiga saqlash va ularga ilmiy loyihalarni grant asosida moliyalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 10 ta ilmiy tashkiloti Fanlar akademiyasi tizimiga qaytarilib, uning maqomi va nufuzini yuksaltirish barobarida ilm-fan sohasining jamiyatdagi mavqeyi oshirildi, yoshlarning sohaga bo‘lgan fikri-munosabati ijobiy tomonga o‘zgardi.

2017 — 2021-yillarda ilmiy tashkilotlar laboratoriyalarini mustahkamlash va yangilashga 32 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ ajratilishi rejalashtirildi hamda tegishli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yaqin kelajakda ilm-fan sohasida hal etilishi zarur bo‘lgan quyidagi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda:

birinchidan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining ilm-fanga e’tibori yuqori emasligi. Yurtimiz olimlarining texnologik ishlanmalari va ilmiy-tadqiqotlari natijalarini amaliyotga tatbiq etishga tarmoqlar tomonidan qiziqishning pastligi mamlakat iqtisodiyotining texnologik rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda va Davlat budjeti zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushmoqda. Bundan tashqari, aksariyat ilmiy loyihalar ilmiy tashkilotlarning tashabbuslari asosida shakllantiriladi, ya’ni davlat uchun ustuvor bo‘lgan tadqiqotlar emas, balki mazkur ilmiy tashkilotlar istagan va amalga oshira oladigan aniq yakuniy natija (mahsulot) olish imkonini bermaydigan funksional vazifalar doirasidagi tadqiqotlar moliyalashtiriladi;

ikkinchidan, innovatsion infratuzilmaning alohida elementlari (innovatsion jamg‘armalar, texnologiyalarni joriy etish markazlari, muhandislik laboratoriyalari, texnoparklar va boshqalar) o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikning rivojlanmaganligi. Ichki hamda jahon bozorlariga bilimlar va yangi texnologiyalarni tatbiq etish ishlarini yaxshilash lozim;

uchinchidan, kichik innovatsion tadbirkorlik va ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi. Ilmiy tashkilotlar tomonidan innovatsion korxonalarni tashkil etish bo‘yicha tajriba va ko‘nikmalar to‘liq shakllanmagan;

to‘rtinchidan, ilmiy tashkilotlarda ilm-fanni tashkil qilish, ilmiy ishlar xarajatlarini prognozlashtirish va natijalarning iqtisodiy tahlilini olib borish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi. Ilmiy tashkilotlarning rahbariyati asosan ilm-fan namoyandalaridan iborat bo‘lib, ular ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, tashkilot resurs bazasi va infratuzilmasini yangilab borish, ishlanmalarni rag‘batlantirish kabi sohalarda yetarli ko‘nikmalarga ega emas;

beshinchidan, ilmiy salohiyatni rivojlantirishga xususiy sektorni jalb etish ishlari faol emasligi. Ilm-fanga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish yangi texnologiyalar va ilmiy hajmdor mahsulotlarni yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish, bozorlarda raqobatbardoshlikka erishish va uni saqlab qolishning asosiy omili;

oltinchidan, ilmiy-tadqiqot o‘tkazadigan jamoalar, akademiklar va tadqiqotchilar o‘rtacha yoshining kattaligi. Ilmiy tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy darajali tadqiqotchilarning o‘rtacha yoshi 51 yoshni tashkil etayotganligi yoshlarni ilm-fanga jalb etish ishlarini jadallashtirish hamda ilmiy-tadqiqotlar sur’atlarini oshirishni talab etadi;

yettinchidan, aholi soniga nisbatan olimlar sonining kamligi. Hozirda bir million aholi soniga o‘rtacha 950 nafar ilmiy xodim to‘g‘ri kelmoqda. Yoshlarni ilm-fanga jalb etish ishlarining sust tashkil etilganligi, fan va ta’lim tizimi o‘rtasida integratsiya darajasi past bo‘lganligi, olimlar

mehnatining moddiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaganligi buning asosiy sabablaridandir;

sakkizinchidan, ilmiy-tadqiqot natijalariga mahalliy va xorijiy patentlar olish darajasi pastligi. 2014 — 2018-yillarda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan amaliy va innovatsion loyihalar natijalariga ko‘ra ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari tomonidan jami 700 ta ixtiro patentlashtirilgan bo‘lib, bunda xorijiy patentlarning ulushi 1 foizga teng. Olingan patentlarni xorijiy davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish ishlarini to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish zarur;

to‘qqizinchidan, intellektual faoliyat natijalarini xo‘jalik aylanmasiga kiritishning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari rivojlanmaganligi. Olimlar tomonidan intellektual mulk uchun olingan patentlar bozori mavjud emas. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning intellektual faoliyat natijalarini joriy etishga bo‘lgan manfaatdorligi yuqori darajada emas;

o‘ninchidan, ilm-fan va ilmiy faoliyatga moliyaviy resurlarning yetarli darajada yo‘naltirilmayotganligi. Hozirgi kunda ilm-fan va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilayotgan mablag‘ mamlakat yalpi ichki mahsulotining atigi 0,2 foizini tashkil qiladi va ushbu ko‘rsatkich qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan ilm-fanga yo‘naltirilayotgan mablag‘larga nisbatan kamdir;

o‘n birinchidan, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarning sustligi, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlanmaganligi. Ilmiy tashkilotlarning ilmiy faoliyatini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda tashkil etish payti keldi;

o‘n ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tijoratlashtirish darajasining yuqori emasligi. Bu esa ilmiy tashkilotlar va ular tomonidan tashkil etilgan innovatsion korxonalarga investitsiya va bank krediti mablag‘larining jalb qilish imkoniyatini bermaydi;

o‘n uchinchidan, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kvota tizimi va ilmiy daraja berishda attestatsiya jarayonlari jahon tajribasi bilan uyg‘unlashtirilmaganligi. Ushbu yo‘nalishlardagi byurokratik to‘siqlar oqibatida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash talab darajada emas;

o‘n to‘rtinchidan, ilmiy tashkilotlarning asosan poytaxt atrofida markazlashganligi va hududlarda zamonaviy ilmiy laboratoriyalarning mavjud emasligi. Deyarli 90 foiz ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari Toshkent shahrida shakllanganligi hududlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini zamon talablari darajasida amalga oshirishni chegaralab qo‘ymoqda;

o‘n beshinchidan, ilmiy bazani texnologik jihatdan jihozlash darajasining yuqori emasligi. Ilm-fanni texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash darajasi past, ilm-fanning texnologik bazasi holatini tahlil qilish va uni muntazam yangilab borish tizimi to‘liq shakllanmagan;

o‘n oltinchidan, ilmiy tashkilotlar o‘rtasida raqobatning rivojlanmaganligi, ularning milliy reytingi va yillik baholab borish tizimi to‘liq joriy etilmaganligi. Aksariyat ilmiy tashkilotlar fan yo‘nalishlarida monopolist sifatida faoliyat yuritadi, ilm-fan yo‘nalishlarida raqobatchi sifatida namoyon bo‘la olmayapti;

o‘n yettinchidan, mustaqil ilmiy ekspertlar jamoasining shakllanmaganligi. Ilmiy loyihalar muhokamasi jarayonida mahalliy olimlar jamoasidan iborat ilmiy-texnik kengashlardagi “manfaatlar to‘qnashuvi” loyihalarga berilayotgan xulosalarning xolisligi va sifatiga salbiy ta’sir qilmoqda;

o‘n sakkizinchidan, ilm-fandagi yutuqlarning yetarli darajada targ‘ib qilinmasligi. Yangi texnologiyalar va mahsulotlarni sotish mumkin bo‘lgan bozorlar haqida, shuningdek xususiy investorlar va kredit tashkilotlari uchun yuqori daromadga ega kapital kiritiladigan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kam targ‘ib qilinadi;

o‘n to‘qqizinchidan, olimlarning jahonning nufuzli ma’lumotlar bazalarida indeksatsiyadan o‘tgan yuqori impakt faktorli jahon jurnallarida maqolalar chop etish darajasining pastligi. Hozirda WEB of Science, SCOPUS kabi ma’lumotlar bazasida indeksatsiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar orasida O‘zbekistonning yalpi ulushi 0,1 foizga yaqin. O‘z ichiga 5 mingdan ortiq nashriyotlarning 22 ming nomdagi ilmiy jurnallarini olgan Scopus ma’lumotlar bazasi asosida SJR (ScimagoJournal&CountryRank) resursining tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston bitta

maqolaga havolalar ko‘rsatkichi bo‘yicha jahonning 239 davlati o‘rtasida 220-o‘rinni egallab (6,52), mamlakatimizning H-index ko‘rsatkichi 86 ni tashkil etmoqda.

3-bob. Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchisi, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish;

ikkinchisi, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash;

uchinchisi, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish;

to‘rtinchisi, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish;

beshinchisi, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish.

4-bob. Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari

1-§. Ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish

Ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish vakolatli davlat organi tomonidan ilmiy-tadqiqot dasturlarining muvofiqlashtirilishini va boshqarilishini nazarda tutadi.

Ilmiy faoliyatni tashkil etish quyidagi asosiy boshqaruv jarayonlarining hamjihatligini va izchilligini ta’minlashi zarur:

ilm-fan sohasida siyosatni belgilash — sohadagi vakolatli davlat organi tomonidan milliy ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va ilmiy dasturlarni boshqarishni nazarda tutadi;

ehtiyojlarni aniqlash — ustuvor ilmiy yo‘nalishlar doirasida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini saralashni nazarda tutadi. Vakolatli davlat organi tarmoq vazirliklari bilan birgalikda ilmiy faoliyatga oid dasturlar loyihalarini ishlab chiqadi;

rejalashtirish — qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini va kutilayotgan natijalarni muayyan ko‘rsatkichlar bilan belgilashni nazarda tutadi;

moliyaviy tahlil — zarur moliyalashtirish hajmini qo‘yilgan vazifalarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich baholashni belgilaydi;

buyurtmalarni tahlil qilish — davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan kelib tushgan talabnomalarni texnik va ilmiy ekspertizadan o‘tkazishni nazarda tutadi;

amalga oshirish (yoki moliyalashtirish) — ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarining Davlat budjetidan moliyalashtirilishini nazarda tutadi;

natijalarni monitoring va tahlil qilish — ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirishning holati va kutilgan natijalarga erishilganligi baholanadi;

natijalarga mutaxassis bahosini olish — texnik va ilmiy ekspertiza o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Bunda loyihalar bo‘yicha oraliq natijalar ekspertizasi ham o‘tkazilishi mumkin;

tijoratlashtirish va natijalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish — natijalarni iqtisodiyot tarmoqlariga va ijtimoiy sohaga joriy qilishni nazarda tutadi;

ilmiy faoliyatni boshqarish — ilm-fan va ilmiy faoliyatning vakolatli davlat organi tomonidan boshqarilishini nazarda tutadi.

Bunda, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) jahon tajribasida loyihaviy boshqaruv o‘zining samaradorligini ko‘rsatayotganini inobatga olib, ilm-fanni boshqarishda dasturiy maqsadli yondashuvni qo‘llash, yangi boshqaruv vositalarini joriy etish va ulardan foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. Bu tashkilot ichida mablag‘larni samarali taqsimlash, loyihani amalga oshirish jarayonini nazorat qilish hamda ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uning bajarilishiga tuzatish kiritish imkonini beradi. Budjetdan moliyalashtiriladigan grant loyihalariga davlat buyurtmasi joriy qilinadi va loyihalarga tanlovlar vakolatli davlat organi tomonidan tematik tarzda muntazam o‘tkazib boriladi;

2) respublikada ilmiy sohaning holati va kelgusida rivojlanishini aniqlash uchun maqsadli ko‘rsatkichlarning strategik jihatdan maqbul bazasini, ilmiy faoliyat sohasidagi chuqur, batafsil

ekspert-tahlil va prognoz ishlarini tayyorlash hamda amalga oshirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqiladi;

3) ilmiy tashkilotlarning holati va ish faoliyatini baholash, ilm-fanni taraqqiy ettirish bo‘yicha davlat siyosatini muvofiqlashtirish va strategik rivojlanishning vazifa hamda yo‘nalishlarini belgilash, ilmiy-tadqiqot sohasi rivojlanishining salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlash uchun tizimli ravishda (har uch yilda bir marotaba) mahalliy ilmiy salohiyat, davlat ilmiy-texnik ekspertizasi va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari xalqaro audit tashkilotlari tomonidan mustaqil fan auditidan o‘tkaziladi.

Mustaqil fan auditi o‘tkazishga bevosita vakolatli davlat organi mas’ul bo‘lib, audit natijalariga ko‘ra yangi infratuzilmalar va fan yo‘nalishlari tashkil qilinadi, mavjudlari samaradorligiga ko‘ra kengaytiriladi (yoki qisqartiriladi) va yangi yo‘nalishlar ustida faoliyat yuritish uchun qayta shakllantiriladi;

4) vakolatli davlat organi tomonidan yillik monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilib, yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil fan auditi natijalari bilan uyg‘unlashtirilgan ilmiy tashkilotlarning milliy reyting tizimi shakllantiriladi;

5) ilmiy va texnikaviy rivojlanishning afzalliklari va nuqsonlari to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradigan, har bir sohaning innovatsion rivojlanishidagi istiqbolli ilmiy va texnologik yo‘nalishlarini aniqlash, ilmiy, texnikaviy va sanoat-texnologik faoliyat natijalarini iqtisodiy baholash maqsadida forsayt guruhlari tashkil etiladi va forsayt tadqiqotlari o‘tkazib boriladi;

6) ustuvor qadam sifatida ilmiy tashkilot rahbari lavozimiga ilm-fan tizimini boshqarish ko‘nikmasiga va iqtisodiy bilimga ega bo‘lgan yosh mutaxassisni tayinlash amaliyoti kiritiladi. Ilmiy tashkilotlar rahbarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o‘qitish va muntazam malakasini oshirib borish tizimi joriy qilinadi. Har bir ilmiy tashkilotda ilm-fan va ilmiy faoliyat bo‘yicha tashkilotning maslahatchisi lavozimi kiritilib, bu lavozimga taniqli fan namoyandalari va yetakchilaridan biri tayinlanadi. Bosh maslahatchi tashkilotning Ilmiy kengashini boshqarish vakolatiga ega bo‘ladi;

7) ilm-fanda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish, ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash hamda ilmiy maktablar, fan namoyandalari va yetakchi olimlarning sohadagi mas’uliyatini oshirish maqsadida har bir fan yo‘nalishlari bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida fan jamiyatlari tashkil qilinadi.

2-§. Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash

Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) ilm-fan sohasiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bosqichma-bosqich 2022-yilgacha yalpi ichki mahsulotning 0,8 foizi miqdorigacha oshiriladi. Bunda yo‘naltirilgan mablag‘lar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik muhim yo‘nalishlariga muvofiq ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va chuqur ilm talab qiluvchi mahsulotlar yaratish bo‘yicha ilm-fanga oid davlat, hududiy va xalqaro dasturlarni hamda startap loyihalarni davlat buyurtmasi tanlovlariga ko‘ra moliyalashtirishga, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish, zamonaviy fan yo‘nalishlari bo‘yicha infratuzilmalarni tashkil qilish, ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yangilab borish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim (doktorantura) institutini moliyalashtirish kabi rejalashtirilgan chora-tadbirlarga yo‘naltiriladi;

2) ilmiy loyihalarni xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari bilan teng sheriklikda moliyalashtirish amaliyoti kengaytiriladi. Bunda davlat buyurtmasi doirasida korxona muammolarining yechimiga qaratilgan tematik loyihalar tanlovlari tashkil qilinib, tanlov natijalariga ko‘ra teng sheriklikda moliyalashtirish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada xususiy tarmoq korxonalarining ilmiy faoliyatni moliyalashtirishdagi ulushi salmoqli darajada o‘sishiga erishiladi;

3) ilmiy-innovatsion loyihalarni qo‘shimcha moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari, xususan Jahon bankining ilm-fanni tijoratlashtirishga ajratiladigan imtiyozli qarz mablag‘lari jalb qilinadi. Jalb qilingan mablag‘lar grant loyihalari ko‘rinishida tadqiqotlarni tanlov

asosida moliyalashtirishga, innovatsion korxonalar tashkil qilish orqali yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishga, ilmiy va innovatsion faoliyat ekotizimini rivojlantirish va mamlakatda texnologiyalar transferi markazlarini tashkil qilishga yo‘naltiriladi;

4) ilm-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy davlatlar donor tashkilotlarining grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘larini jalb etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda qator xalqaro ilmiy fondlar O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tkaziladi;

5) innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirishda “amalga oshmaslik xavfini” kamaytirish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi jamg‘arma mablag‘lari ishtirokida xorijiy yetakchi investitsion kompaniyalar bilan venchur fondlari tashkil qilinadi;

6) ilm-fanning istiqbolli va yangi yo‘nalishlarida (shu jumladan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, robototexnika, farmatsevtika, biotexnologiya, nanotexnologiyalar, energetika, muhandislik, elektronika, mexanika, mashinasozlik, genomika, astronomiya, dasturlash, sanoat dizayni, kriminalistikada) ilmiy-tadqiqot ishlari jadallashtiriladi.

Shuningdek, ilm-fanni rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari, xarajatlarning mutanosib tarkibi va xususiy sektor talabiga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilishi kerak. Bunda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun quyidagi xarajatlar tarkibi ta’minlanadi:

tadqiqot turlari bo‘yicha: fundamental tadqiqotlar uchun ilm-fanni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan barcha mablag‘larning — 15 foizi, amaliy tadqiqotlar uchun — 20 foizi, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun 65 foizi. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining xususiyatidan kelib chiqib mablag‘lar taqsimotiga tegishli o‘zgartirish kiritilishi mumkin;

moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: Davlat budjeti — 45 — 50 foiz, xususiy va tadbirkorlik sohalari — 45 — 50 foiz, xorijiy investitsiyalar — 5 foiz.

Davlat buyurtmasi doirasida ustuvor tadqiqotlar hamda davlat ahamiyatiga ega dasturlar (mineral xomashyo, tog‘-kon, yoqilg‘i-energetika, suv xo‘jaligi tizimlari, seysmik va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy va texnogen tabiatli favqulodda holatlarning oldini olish va bartaraf etish kabilar) moliyalashtirilishi zarur.

Mazkur chora-tadbirlar bilan bir qatorda iqtisodiyotni ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirishda o‘zini o‘zi ta’minlashga erishish maqsadida xususiy sektorning ilmiy mahsulotlarga buyurtmalari mustaqil ravishda shakllantirilishi va moliyalashtirilishini rag‘batlantirish nazarda tutiladi.

Loyihani amalga oshiruvchilar davlat manfaatlarini hisobga olgan holda samaradorlik, dolzarblilik, malaka va asbob-uskunalar bilan ta’minlanganlik mezonlari bo‘yicha mamlakat ichidagi va xorijdagi ilmiy jamoalar orasidan tanlab olinadi.

Ilmiy faoliyat natijalariga fuqarolik huquqlarining vujudga kelishini va jalb etilishini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy asoslar takomillashtiriladi, ularning sanoatga joriy qilinishini ta’minlaydigan infratuzilma yaratiladi.

3-§. Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish

Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) yetakchi ilmiy tashkilotlar va universitetlarda ilmiy izlanishlarning ilg‘or darajasini ta’minlashga qodir malakali kadrlar bilan ta’minlangan yangi ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi shakllantirib boriladi;

2) fan doktorlari (DSc) va falsafa doktorlari (PhD)ni tayyorlash doirasida ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlarni maqsadli tayyorlashga o‘tiladi;

3) dotsent va professor unvonini olish tartibiga doktoranturadan keyingi orttirilgan tajriba mavjudligiga oid talablar kiritiladi;

4) davlat ilmiy tashkilotlarida yangi kadrlar siyosati joriy qilinib, asosiy e’tibor kadrlar bilan ishlashning strategik boshqaruvini joriy etishga qaratiladi;

5) mutaxassislarni qayta tayyorlash va doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida ingliz tilini o‘rganayotgan olimlar uchun turli o‘quv kurslarini tashkil qilish, mahalliy va dunyoning

yetakchi universitetlari o‘rtasida o‘qituvchilar va talabalar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi;

6) Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab- quvvatlash jamg‘armasi va “El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtidorli yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini tashkillashtirish, o‘qish va malaka oshirishiga ko‘maklashiladi, ularning xalqaro ilmiy-texnik konferensiyalarda va ilmiy loyihalarda ishtiroki etishlari, ilmiy ishlarining nashr etilishi ta’minlanadi;

7) tadqiqotchilar va olimlar uchun professional treninglar tashkil etiladi;

8) ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jahon andozalariga moslashtirish choralari ko‘riladi. Bunda yetakchi ilmiy tashkilotlar va universitetlarga mustaqil ilmiy darajalar berish vakolatlari kengaytirib boriladi, dissertatsiya himoyasi va attestatsiya o‘tkazish amaliyoti tubdan isloh qilinadi;

9) oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim (doktorantura) institutiga kvotalar ajratish va uni monitoring qilish tizimi to‘laligicha vakolatli davlat organiga yuklanadi va raqamlashtiriladi;

10) davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilayotgan grant loyihalari doirasida qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etish, yangi mexanizm sifatida grant loyihalari doirasida fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) tayyorlashga buyurtma berish hamda uni moliyalashtirishga ruxsat beriladi;

11) oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan talabalarga ilmiy faoliyat olib borish uchun zarur shart-sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlari yaratiladi. Natijada o‘qishni bitirgan va ilmiy faoliyatini davom ettirishni bildirgan magistrlarning soni ko‘payadi;

12) doktorantlar bilan ishlash, ular tomonidan olib borilayotgan ishlarni nazorat (monitoring) qilish, himoyaga o‘z vaqtida chiqishini ta’minlash mexanizmlari yanada takomillashtiriladi.

4-§. Ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish

Ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi hamda butlovchi qismlar bilan ta’minlanadi;

2) ilmiy faoliyat infratuzilmalari (ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari) doirasida milliy ilmiy laboratoriyalar tarmog‘i yaratiladi;

3) ilm-fanni rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy olimlarga markazlarning asbob-uskunalari, tajriba-ishlab chiqarish bazalari va boshqa ilmiy resurslaridan foydalanishga keng imkon yaratilgandagina ilmiy tashkilotlar hamda muassasalar salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish ta’minlanadi. Buning uchun ilmiy tashkilotlar huzurida ilmiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jamoaviy foydalaniladigan ilmiy laboratoriyalar hamda GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy laboratoriya majmualari bosqichma-bosqich tashkil etiladi;

4) nodavlat loyiha va konstruktorlik tashkilotlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi va investitsiya dasturlari doirasida qo‘llab-quvvatlanadi;

5) ilmiy tashkilotlar, universitetlar tarkibida ilmiy-innovatsion klasterlar, innovatsiya markazlari, konstruktorlik ustaxonalari, biznes akseleratorlar, startap akseleratorlari tashkil qilinadi. Hududiy markazlarda esa innovatsiya markazlari, yoshlar texnoparklari, texnologiyalar transferi markazlari, kichik ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari hamda innovatsion poligonlar tashkil qilinadi;

6) ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahsulotlar marketingi bilan shug‘ullanadigan alohida kompaniyalar tashkil etilib, ilm-fanga oid dasturlar doirasida yaratilgan yangi ishlanmalar marketingini yuritish va sheriklikda tijoratlashtirish majburiyatlari yuklanadi;

7) xususiy sektor va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan davlat boshqaruvi organlari ishtirokidagi jamg‘armalar tashkil qilinadi hamda yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

8) rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ilmiy ekspertiza jarayonida “manfaatlar to‘qnashuvi” omillarini cheklash maqsadida ilmiy loyihalar ekspertizasiga mas’ul tuzilma tashkil qilinib, muhokamalarga chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda ekspertizaning to‘la interaktiv platforma orqali o‘tkazilishi ta’minlanadi.

5-§. Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish

Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) milliy ilmiy portalni yaratish: portal doirasida mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yagona akademik makon, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun arizalarni avtomatik tarzda topshirish va ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi yaratiladi;

2) olimlar, tashkilotlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish: boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning muhim rolini hisobga olgan holda ilmiy salohiyatni baholash ko‘rsatkichlari joriy etiladi. Obyektiv miqdoriy ko‘rsatkichlarning joriy etilishi moliyalashtirish uchun loyihalarni tanlab olish va natijada ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi;

3) ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlash: ilmiy va texnologik rivojlanishni prognozlashning tizimli jarayoni mahalliy va jahon miqyosidagi ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan talab qilinadigan ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish uchun zarurdir.

4) mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini baholash: ilm-fan sohasi holati va uni yanada rivojlantirish tendensiyalari tahlili, so‘nggi yillarda mamlakatimiz ilm-fanining sifatli va miqdoriy rivojlanishini o‘rganish, mahalliy ilmiy-texnik salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va tahlil qilish, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini hamda ilmiy infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi mexanizmlarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot dasturlarining samaradorligi va natijadorligini baholash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarida ishlar amalga oshiriladi;

5-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Konsepsiyaning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

ilmiy tadqiqotlar dasturlari muvofiqlashtiriladi va samarali boshqariladi, ular ustuvor ilmiy yo‘nalishlarga qayta yo‘naltiriladi;

ilm-fanning asosiy, dasturiy-maqsadli va grant tizimida moliyalashtirilishi orqali davlat va xususiy sektor tomonidan muvozanatli moliyalashtirishga erishiladi;

Good Scientific Practice (GSP) va Good Laboratory Practice (GLP) standartlarini joriy etish amalga oshiriladi, GLP va Good Manufacturing Practice (GMP) standartlari bo‘yicha xalqaro mezonlarga mos keladigan milliy ilmiy laboratoriyalarning faoliyati tashkil qilinadi;

olimlarning intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarini himoya qilish maqsadida plagiat va ilmiy g‘oyalarni o‘zlashtirish holatlari bartaraf etiladi;

ilm-fan sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirishning yangi tizimi joriy qilinadi;

respublikamizda va xorijda tadqiqot natijalari hamda ishlanmalarni patentlash faolligi oshiriladi;

ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilm-fanga oid dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi va raqobatbardosh natijalarga erishiladi;

qo‘shma ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish, ilmiy loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va xususiy sektorni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish orqali tadbirkorlik subyektlarining, shu jumladan milliy kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtiroki kengaytiriladi;

biznes talablariga javob beradigan ilmiy ishlar natijalarini hujjatlashtirish tizimi yaratiladi;

bozorda ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari va ishlanmalar tijoratlashtiriladi;

ilmiy-tadqiqot hisobotlari xalqaro boshqaruv va ilmiy amaliyotga muvofiqlashtiriladi;

mahalliy va jahon ilmiy-texnik axborotidan foydalanuvchilar uchun samarali va qulay sharoitlar yaratiladi;

xorijiy investorlar ishtirokida ilmiy markazlar tashkil etiladi;

zamonaviy va rivojlangan ilmiy-innovatsion infratuzilmani yaratish hisobiga ilmiy yutuqlar almashinuvi kengaytiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga
1a-ILOVA

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari

T/r	Maqsadli ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Indikatorlar							
			2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2027 yil	2030 yil
1.	Ilm-fanga ajratilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi	Foiz	0,2	0,5	0,8	1,0	1,1	1,2	1,6	2
2.	Ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratilgan mablag‘lar ulushi	Foiz	8	12	15	17	18	20	25	30
3.	“Web of Science” xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida indeksatsiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan umumiy maqolalar sonida O‘zbekistonning ulushi	Foiz	0,008	0,017	0,025	0,036	0,042	0,05	0,1	0,2
4.	“Web of Science” xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida indeksatsiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda o‘zbekistonlik olimlar tomonidan chop etilgan bitta maqolaga nisbatan xorijiy havolalar soni	Dona	0,5	0,7	1	1,2	1,3	1,5	2,5	3
5.	“Web of Science” xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida indeksatsiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda har 100 nafar o‘zbekistonlik olimlar tomonidan chop etilgan maqolalar soni	Dona	-	3	4	4	5	6	8	10
6.	Tadqiqotchilarning o‘rtacha yoshi	Yosh	51	49	47	46	46	45	43	39
7.	Tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning ulushi	Foiz	46,2	47	48	49	50	52	56	61

8.	39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa doktori, fan doktori) ulushi	Foiz	11	13	15	17	19	20	25	30
9.	Xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborilgan tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning ulushi	Foiz	30	35	40	44	47	50	60	70
10.	Ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar sohasida sotilgan mahsulotlarning (tovarlar, ishlar va xizmatlar) umumiy hajmida innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning ulushi	Foiz	1,1	3	5	7	9	10	15	20
11.	Ixtirochilik faolligi koeffitsiyenti (respublikada topshirilgan mahalliy ixtirolarga patentga talabnomalar soni, aholining har 10 ming nafariga nisbatan)	Bir-lik	0,14	0,35	0,5	0,7	1,0	1,2	1,5	2
12.	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarda mavjud mashina va uskunalarning umumiy qiymatida foydalanish davri 5 yilgacha bo‘lgan mashina va uskunalar qiymatining ulushi	Foiz	12	15	20	24	27	30	40	50
13.	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o‘z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushi	Foiz	7	11	15	17	21	25	35	65
14.	Texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida mashina, asbob-uskuna va dasturiy vositalar sotib olish xarajatlarining ulushi	Foiz	54	52	50	48	45	40	30	15
15.	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasi◆agi innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmida innovatsion tovar, ishlar va xizmatlarning yangi sotuv bozorlari ulushi	Foiz	5	6	7	8	9	10	12	15

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga
2-ILOVA

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020 — 2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
I. Ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish					
1.	Ilm-fanga loyihaviy boshqaruv tizimini joriy qilish.	1. Ilm-fan yo‘nalishlari bo‘yicha tematik loyihalar portfelini shakllantirish. 2. Vakolatli organ veb-sahifasida muntazam e’lonlarni berib borish. 3. Loyihalarni texnik va ilmiy ekspertizadan o‘tkazish. 4. Moliyalashtirishga tavsiya etish.	Belgilangan muddatlarda	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl vazirlik va idora ilmiy tashkilotl tarmoq korxonal
2.	Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari huzuridagi ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy yo‘nalishlarini jahonda ilm-fanning rivojlanish tendensiyalari talablari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazish.	1. Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari huzuridagi ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ro‘yxatini tuzish. 2. Ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarida tadqiqotlar amalga oshirilayotgan ilmiy yo‘nalishlarni xatlovdan o‘tkazish. 3. Tadqiqotlar amalga oshirilayotgan ilmiy yo‘nalishlarni jahonda ilm-fanning rivojlanish tendensiyalari talablari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlari asosida qiyosiy tahlil qilish. 4. Ilmiy yo‘nalishlarni modernizatsiya qilish va ushbu yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlarini belgilash.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil yanvar 2021-yil mart	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘lic saqlash vazirlig Qishloq xo‘jali vazirligi, manfaat vazirlik va idora ilmiy tashkilotl tarmoq korxonal
3.	Mahalliy ilmiy salohiyatningdavlat ilmiy-texnik ekspertizasini va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini	1. Ilm-fan auditi uchun texnik vazifa va talabnomani shakllantirish. 2. Audit o‘tkazuvchilardan taklif olish va tanlash.	2020 — 2022-yillar noyabr 2020 — 2022-yillar dekabr	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari	Innovatsion rivojlanish vazirl Sog‘liqni saqla vazirligi, ilmiy tashkilotlar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	mustaqil ilm-fan auditini o‘tkazish.	3. Auditni har 3 yilda o‘tkazish va audit natijalari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritish.	2022-yil sentyabr		
4.	Ilmiy tashkilotlarning milliy reyting tizimini shakllantirish.	1. Ilmiy tashkilotlar reytingini hisoblash metodikasini tasdiqlash. 2. Ilmiy tashkilotlar reytingini tuzish va e’lon qilish.	2020-yil noyabr Har yili may oyida e’lon qilish	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘lio saqlash vazirlig Qishloq xo‘jali vazirligi, manfaat vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
5.	Ilmiy sohalarning texnologik imkoniyatlarini baholab boruvchi forsayt tadbirlarini o‘tkazish.	1. Ilm-fan va ilmiy faoliyat auditi natijasi asosida forsayt uchun texnik vazifa va talabnomani shakllantirish. 2. Forsayt o‘tkazuvchilardan taklif olish va tanlash. 3. Forsaytni o‘tkazish va natijalari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil iyun	-	Innovatsion rivojlanish vazirl vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
6.	Ilmiy tashkilotlarning boshqaruv tizimini isloh qilish.	1. Ilmiy tashkilotlar direktorligiga iqtisodiy bilimga ega bo‘lgan yosh mutaxassisni tayinlash hamda bosh ilmiy maslahatchi lavozimini kiritish. 2. Yangi rahbarlarni tayinlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o‘qitish. 3. Rahbarlar malakasini muntazam ravishda oshirib borish.	2020-yil dekabr 2021-yil yanvar — mart, muntazam Har yili bir marta	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
7.	Fan yo‘nalishlari bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlar sifatida Fan jamiyatlarini tashkil qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Yetakchi fan yo‘nalishlari va ilmiy maktablarni tahlil qilish va ro‘yxatini shakllantirish. 2. Fan jamiyatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 3. Yillik hisobotlarini eshitish.	2020-yil dekabr 2021-yil yanvar Yil yakunida	Ijrochi tashkilotlar mablag‘lari	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqla vazirligi, Adliya vazirlig
8.	Ilm-fan sohalaridagi ustuvor yo‘nalishlarni	1. Matematika, biologiya, kimyo va geologiya sohalarida ilm-fanni rivojlantirish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini tahlil qilish.	2020-yil noyabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	tanlab olish va fan sohalarini tizimli bosqichma-bosqich isloh qilish.	2. Tahlillar natijasiga ko‘ra ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlarini ishlab chiqish.	2020-yil dekabr, reja asosida		Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
9.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash va oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini tayyorlash va loyihada shu jumladan quyidagilarni nazarda tutish: vakolatli davlat organida falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilish (ekvivalentligini qayd etish) talab etilmaydigan holatlarni belgilash; Oliy attestatsiya komissiyasining amaldagi vazifa va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, uning faoliyatida samaradorlik, ochiqlik va shaff﷿flikni yanada oshirish,	1. Ishchi guruhi tuzish. 2. Qaror loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil dekabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Oliy attestatsiy komissiyasi, Mol vazirligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	xodimlar mehnatiga haq to‘lash tizimini yaxshilash.				
II. Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash					
10.	Ilm-fan sohasiga davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni bosqichma-bosqich 2030-yilga yalpi ichki mahsulotning 2 foiz miqdorigacha, shu jumladan 2022-yilgacha yalpi ichki mahsulotning 0,8 foiz miqdorigacha oshirish.	Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 — 2023-yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarinidiversifikatsiyalashning maqsadli parametrlarini amalga oshirish.	2021 — 2023-yillar	Ilm-fan sohasiga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Axborot texnologiyalari kommunikatsiyala rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlas vazirligi, Qishlo xo‘jaligi vazirlig Moliya vazirlig vazirlik va idora
11.	Ilmiy loyihalarni xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari bilan teng sheriklikda moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish.	1. Xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari bilan davlat buyurtmasi doirasida korxonalar muammolarini yechimiga qaratilgan tematik loyihalar tanlovlarini tashkil qilish. 2. Tanlov natijalariga ko‘ra teng sheriklikda moliyalashtirishni amalga oshirish.	2020 — 2022-yillar	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari mablag‘lari	Innovatsion rivojlanish vazirl Sog‘liqni saqlas vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
12.	Ilm-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy davlatlar donor tashkilotlarning grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘larini jalb qilish.	1. Loyiha pasportlarini ishlab chiqish. 2. Donor tashkilotlar bilan muzokaralar o‘tkazish va kelishish. 3. Tegishli shartnomalarga qo‘l qo‘yish va loyihani amalga oshirish ustida ishlar olib borish. 4. Xalqaro ilmiy fondlarni O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tkazish.	2020-yil noyabr 2020-yil noyabr Kelishuvga asosan 2020 — 2022-yillar	-	Investitsiyalar v tashqi savdo vazirligi, Innovat rivojlanish vazirl Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Fanlar akademiy
13.	Innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yet�kchi	1. Innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirishga xorijiy yetakchi investitsion kompaniyalarni jalb qilish va hamkorlikda venchur fondlarini tashkil qilish bo‘yicha	2020-yil noyabr 2021-yil may	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	investitsion kompaniyalar bilan venchur fondlarini tashkil qilish.	chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar bajarilishi yakunlari bo'yicha venchur fondlarini tashkil qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish. 3. Venchur fondi yordamida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni amalga oshirish.	2021-2022-yillar		Investitsiyalar v tashqi savdo vazirligi, Fanlar akademiy
14.	Ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.	1. Ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqish. 2. Hududiy dasturlarni mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.	2020-yil noyabr Belgilangan muddatlarda	Mahalliy budjet mablag'lari	Qoraqalpog'isto Respublikasi Vaz Kengashi, viloyatlar va Toshkent shaha hokimliklari, Innovatsion rivojlanish vazir
15.	Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotni o'rganish natijalari asosida quyidagilar tasdiqlanishini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish: Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bajariladigan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirish, moliyalashtirish va xarajatlarni hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizom; Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davlat ilmiy tashkilotlarini	1. Ishchi guruhi tuzish. 2. Qaror loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil dekabr		Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Moliya vazirlig manfaatdor vazir va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	bazaviy moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom.				
III. Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish					
16.	Ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlarni maqsadli tayyorlash mexanizmini joriy etish.	1. Fan doktorlarini tayyorlash doirasida ustuvor ilmiy yo‘nalishlarni belgilash, mazkur yo‘nalishlarda ilmiy kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj hamda ularni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning salohiyatini o‘rganish. 2. O‘rganish natijalariga ko‘ra ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlarni maqsadli tayyorlashga o‘tish.	2020-yil dekabr 2021-yil yanvar	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Oliy attestatsiy komissiyasi, Sog‘liqni saqla vazirligi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
17.	Olimlarni ijodiy va moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish, ilmiy xodimlarning maqomini oshirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy paket ishlab chiqish.	1. Olimlarni ijodiy va moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish. 2. Xorijiy tajribalar asosida olimlarni ijodiy va moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish, ilmiy xodimlarning maqomini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Ilm-fanni rivojlantirishda mahalliy, xorijiy ilmiy va muhandis kadrlar ishtirokini ta’minlash.	2020-yil dekabr 2021-yil fevral 2021-2022-yillar	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘li saqlash vazirlig vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
18.	Davlat ilmiy tashkilotlarida yuqori malakali yangi ilmiy kadrlar tayyorlash amaliyotini joriy qilish.	1. Dotsent va professor unvonini olishda doktoranturadan keyingi orttirilgan tajriba mavjudligiga oid quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash: kadrlar bilan ishlashning strategik boshqaruvini joriy etish; lavozimlarning yangi jadvalini tuzish; raqobatbardosh ish haqi to‘lanishini ta’minlash. 2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil mart 2021-yil aprel	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, Sog‘liqni saqla vazirligi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
19.	Mutaxassislarni qayta tayyorlash va doimiy ravishda	1. Ingliz tilini o‘rganayotgan olimlar uchun turli o‘quv kurslarini tashkil qilish.	2020 — 2022-yillar	Ijrochilar mablag‘lari	Oliy va o‘rta max ta’lim vazirligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	malakasini oshirish.	2. Oliy ta’lim muassasalari va dunyoning yetakchi universitetlari o‘rtasida o‘qituvchilar va talabalar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish. 3. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga iqtidorli yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda o‘qitish va malaka oshirishiga ko‘maklashish, ularning xalqaro ilmiy-texnik konferensiyalarda va ilmiy loyihalarda ishtirok etishlarini, ilmiy ishlarining nashr etilishini ta’minlash. 4. Tadqiqotchilar va olimlar uchun professional treninglar tashkil etish.			Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Sog‘liqni saqla vazirligi, “El-yu umidi” jamg‘arm vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
20.	Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash (tayanch doktorantura va doktorantura) institutini takomillashtirish va jahon andozalariga moslashtirish.	1. Yetakchi ilmiy tashkilotlar va universitetlarga mustaqil ilmiy darajalar berish vakolatlarini kengaytirib borish. 2. Dis�ertatsiya himoyasi va attestatsiya o‘tkazish amaliyotini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tubdan isloh qilish.	2021-yil yanvar 2021-yil iyun	-	Oliy attestatsiy komissiyasi, Oliy o‘rta maxsusta’l vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Sog‘liqni saqla vazirligi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
21.	Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash (doktorantura) institutiga kvotalar ajratish va uni monitoring qilish tizimini takomillashtirish.	Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash (doktorantura) institutiga kvotalar ajratish va uni monitoring qilish tizimini to‘laligicha vakolatli davlat organiga yuklatish va raqamlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil yanvar	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘liq saqlash vazirlig vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
22.	Grant loyihalari doirasida “falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)” tayyorlashga buyurtma berish va uni moliyalashtirish.	1. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilayotgan grant loyihalari doirasida qisqa va uzoq muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirokini ta’minlash.	2020 — 2022-yillar 2021-yil yanvar, belgilangan muddatlarda	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, “El-umidi” jamg‘arm Sog‘liqni saqla

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
		2. Grant loyihalari doirasida falsafa doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc)ni tayyorlashga buyurtmalarni shakllantirish va moliyalashtirish.			vazirligi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
23.	Ilmiy tashkilotlar salohiyati va moddiy-texnika bazasidan foydalangan holda yuqori malakali ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashda ishtirok etish.	1. Ilmiy tashkilotlar olimlarini ta’lim jarayonlariga jalb etish va rag‘batlantirishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish. 2. Tegishli yo‘nalishdagi bakalavr va magistrlarning dars jarayonidagi laboratoriya amaliyotini tashkil etish uchun oliy ta’lim muassasalari bilan kelishuv imzolash.	2020-yil dekabr	-	Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘li saqlash vazirlig tizimida ilmiy tashkilotlar bo‘lg vazirlik, idora v tarmoq tashkilot
24.	4ta ustuvor yo‘nalishlar — matematika, biologiya, kimyo va geologiya sohalarini ustuvor rivojlantirish.	1. Matematika, biologiya, kimyo va geologiya sohalarini ustuvor rivojlantirishga qaratilgan ilmiy loyihalarni tanlovlar asosida shakllantirish. 2. Tanlovlar natijalariga ko‘ra ilmiy loyihalarni amalga oshirish.	2020-yil dekabr 2021-2022-yillar	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotl
25.	Noyob qo‘lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda natijalarini tegishli sohalarda keng foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Qaror loyihasida, shu jumladan quyidagilar nazarda tutiladi: mamlakatimizdagi turli ilmiy va ta’lim muassasalarida, muzey hamda fondlarda saqlanayotgan noyob qo‘lyozma va toshbosma asarlarni tizimli o‘qib-o‘rganish, ularni tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish. yosh tadqiqotchilarni jalb etish, ularni kasbiy malakasini oshirish, manba�unos va matnshunos kadrlar tayyorlash. Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining faoliyatini tubdan takomillashtirish.	2020-yil dekabr	Davlat budjeti, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari va boshqa manbalar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta max ta’lim vazirligi Madaniyat vazirl Moliya vazirlig vazirlik va idora
IV. Ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish					
26.	Ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalarini	1. Davlat buyurtmasi asosida tasdiqlangan ilmiy loyihalarga ajratilgan mablag‘larning kamida 40 foizini moddiy-texnika bazaga yo‘naltirish.	2020 — 2022-yillar	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
	zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda butlovchi qismlar bilan ta’minlash.	2. Zamonaviy ilmiy asbob-uskunalardan iborat laboratoriyalar tashkil etish.			vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
27.	Mavjud ilmiy faoliyat infratuzilmalari (ilmiy markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari) doirasida milliy ilmiy laboratoriyalar tarmog‘iniyaratish.	1. Ilmiy va texnologik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha dastur va loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash. 2. Global bozorda raqobatbardosh ilmiy mahsulotlar va tijoriy texnologiyalarni ishlab chiqish. 3. Xalqaro ilmiy-texnologik hamkorlikda ishtirok etish hamda hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirish asosida ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlar tayyorlash.	2021-yil mart 2022-yil noyabr 2020 — 2022-yillar	Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg‘armasi mablag‘lari, xalqaro grantlar	Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Sog‘liqni saqla vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
28.	Ilmiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jamoaviy foydalaniladigan ilmiy laboratoriyalar hamda GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy laboratoriya majmualarini bosqichma-bosqich tashkil etish.	1. Ilmiy tashkilotlar talab va ehtiyojlari muhokamasiga bag‘ishlangan forsayt tadbirlarini tashkil qilish. 2. Yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar tayyorlash va laboratoriyalar mas’ullarini belgilash. 3. Laboratoriyalarda bajariladigan loyihalar portfelini shakllantirish. 4. Davlat xaridlari orqali jihozlar sotib olishga texnik shartlarni shakllantirish. 5. Asbob-uskuna sotib olish uchun investitsiyalar jalb qilish, laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni natijadorligini ta’minlash.	2020-yil dekabr 2021-yil mart 2021-yil sentyabr 2021-yil oktyabr 2021-yil noyabr	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, xalqaro grantlar, ijrochilar mablag‘lari	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta max ta’lim vazirligi Sog‘liqni saqla vazirligi, Qishloq xo‘jali vazirligi, Investitsiyalar v tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirlig tizimida ilmiy tashkilotlar va o ta’lim muassasal mavjud bo‘lga vazirlik va idora
29.	Nodavlat loyiha va konstruktorlik tashkilotlarini rivojlantirish hamda investitsiya dasturlari doirasida qo‘llab-quvvatlash.	1. Takliflar ishlab chiqish va yo‘nalishlarni belgilash. 2. Konstruktorlik tashkilotlarini tashkil qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 3. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarlar ishlab chiqish.	2020-yil noyabr 2021-yil noyabr 2022-yil davomida	-	Iqtisodiy taraqqi va kambag‘allik qisqartirish vazirl Investitsiyalar v tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirlig Innovatsion rivojlanish vazirl ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
30.	Innovatsion faoliyat subyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi yangi infratuzilmalarni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish.	1. Startap akseleratorlar faoliyatini kengaytirish. 2. Texnoparklar tashkil qilishni kengaytirish. 3. Innovatsion poligonlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	2020-yil noyabr 2021-yil noyabr 2022-yil davomida	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Investitsiyalar v tashqi savdo vazirligi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotl
31.	Vodorod energetikasi texnologiyalari ilmiy-amaliy innovatsion markazini tashkil etish.	1. Markazni tashkil qilish bo‘yicha Hukumat qarori loyiha[?]ini ishlab chiqish. 2. Qaror loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil noyabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Moliya vazirligi, va o‘rta maxsusta vazirligi, manfaat vazirlik va idora
32.	2020 — 2024-yillarda mamlakatda biotexnologiyalarni rivojlantirish.	1. Respublikada biotexnologiyalarni rivojlantirish maqsadida mavjud qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish. 2. Biotexnologiyalarni rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Sog‘liqni saqlas vazirligi, manfaatdor vazir va idoralar
33.	Startap faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikni rivojlantirish.	1. Startaplar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish. 2. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida startap faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Savdo-sanoat palatasi, vazirlik idoralar, ilmiy tashkilotlar
34.	2022 — 2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash.	1. 2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishini tahlil qilish asosida kelgusi yillarda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarni aniqlash. 2. 2022 — 2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini	2020-yil dekabr 2021-yil davomida 2021-yil avgust	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari kommunikatsiyala rivojlantirish vazirligi, Fanla akademiyasi, Oliy o‘rta maxsus ta’l

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
		innovatsion rivojlantirish strategiyasi loyihasini ishlab chiqish uchun forsayt tadbirlarini o‘tkazish. 3. 2022 — 2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi loyihasini ishlab chiqish. 4. Strategiyani belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil sentyabr		vazirligi, manfaat vazirlik va idora
35.	Sun’iy intellektni bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.	1. Mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish. 2. Xorijiy tajribalar asosida sun’iy intellektni bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. 3. Strategiya loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Axborot texnologiyalari kommunikatsiyala rivojlantirish vazirligi, vazirlik idoralar
36.	Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.	1. Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. 2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil oktyabr 2021-yil dekabr	-	Innovatsion rivojlanish vazirl vazirlik va idora
37.	Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarish, tegishli ko‘rsatkichlarga erishish, shuningdek chet eldagi ilmiy yutuqlarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash maqsadida ilmiy-texnik qidiruv va tahlil tizimini rivojlantirish.	1. Ilmiy-texnik qidiruv va tahlil tizimini rivojlantirish uchun ishchi guruh tuzish. 2. Ilmiy-texnik qidiruv va tahlil tizimini rivojlantirish chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Xorijiy davlatlar, ilmiy tashkilotlar va kompaniyalar bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil yanvar	Ijrochilar mablag‘lari	Tashqi ishlar vazirligi, Innovats rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Davlat xavfsizl xizmati
V. Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
38.	Mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan Milliy ilmiy portalni yaratish.	1. Mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan Milliy ilmiy portalni yaratish. 2. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun murojaatlarni avtomatik t?rzda topshirish va ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini joriy qilish.	2021-yil mart 2021-yil iyun	Ilmiy loyihalarga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘lio saqlash vazirlig vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
39.	Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini baholash.	1. Ilm-fan sohasi holati va uni yanada rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish, mahalliy ilmiy-texnik salohiyatning “kuchli” va “zaif” tomonlarini aniqlash va tahlil qilish. 2. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi mexanizmlarini o‘rganish. 3. Tahlillar va o‘rganish natijalari asosida ilmiy-tadqiqot dasturlarining samaradorligi va natijadorligini baholash.	2020-yil dekabr 2021-yil may 2021-yil iyul	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘lio saqlash vazirlig vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
40.	Ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlash.	1. Mamlakatimizda va xorijda ilmiy tadqiqotlar natijalariga bo‘lgan talabni aniqlash. 2. Ilmiy-texnikaviy rivojlanishning milliy ustuvor yo‘nalishlarini belgilash. 3. Mamlakatimiz ilm-fanini va uning sanoat bilan o‘zaro hamkorliginirivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil fevral	-	Innovatsion rivojlanish vazirl Fanlar akademiy Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi, Sog‘lio saqlash vazirlig vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal
41.	Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalarida ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish choralarini ko‘rish.	1. Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalariga kiritish uchun salohiyati yuqori bo‘lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish. 2. Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalarida ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy xodimlari va professor-o‘qituvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xatlovdan o‘tkazish, ro‘yxatdan o‘tmagan respublika ilmiy	2020 — 2022-yillar	-	Oliy ta’lim vazirl Fanlar akademiy Innovatsion rivojlanish vazirl Sog‘liqni saqla vazirligi, vazirlik va idora ilmiy tashkilotla tarmoq korxonal

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
		tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalari haqida ma’lumotlar kiritish. 3. Olimlar tomonidan chop etiladigan maqolalarning sohalarga taqsimlanishidan kelib chiqqan holda ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari ilmiy jurnallarini nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalariga kiritish uchun maqsadli yo‘naltirish.			
42.	Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlardagi fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga hamda dotsent, professor, akademik ilmiy unvonlariga ega bo‘lgan barcha xodimlar tomonidan bir yilda kamida bitta “Web of Science” va “Scopus” ma’lumotlar bazasiga kiritilgan xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilishini ta’minlash.	Tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2020 — 2022-yillar	-	Sog‘liqni saqla vazirligi, Innovat rivojlanish vazirl Oliy va o‘rta max ta’lim vazirlig Fanlar akademiy
43.	Ilmiy tashkilotlarni tadqiqotlarni olib borish, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda raqamli	1. Zarur dasturiy ta’minotlarro‘yxatini va elektron dasturlar kompleksini shakllantirish. 2. Tarmoq tashkilotlari va korxonalarning maxsus jamg‘arma mablag‘lari hisobidan	2020-yil noyabrdan boshlab	Ilmiy tashkilotlar mablag‘lari	Ilmiy tashkilotl vazirlik va idora tarmoq korxonal

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
